

## **XALQONA QASAMLARDA KINETIK VOSITALAR**

**Nabiyeva Diloru Abdulhamidovna**

filologiya fanlari doktori, professor

**Nurmonova Sadoqat Doniyor qizi**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Andijon davlat universiteti

***Annotatsiya.** Qasamyod nutqiy janrida verbal (so'zlar, so'z birikmalari, gaplar) va noverbal (imo-ishoralar, xatti-harakatlar) vositalari, maxsus vositalar (suv, non, muqaddas va muqaddaslashtirilgan narsa-buyumlar, muqaddas joylar va hokazolar)ning mavjudligi uning boshqa janrlardan ajralib turuvchi xususiyatlaridan biridir.*

Xalqona qasamlarda kinetik vositalarning ham o'z o'rnini bor. Har qanday til tarkibida qo'llanayotgan imo-ishoralar o'zlarining juda uzoq tarixiga ega. Nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishi ibtidoiy odamlarga imo-ishoralarni tasvirlovchi va ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ibtidoiy odamning tili, aslini olganda, ikki xil tildir: birinchi tomondan, so'z tili, ikkinchi tomondan, imo-ishora tili.

Hozir ham muloqot jarayonida suhbatdoshlar bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, avvalo, lisoniy (verbal) vositalar orqali ifodalamoqchi bo'ladi. Ular o'rtasidagi bevosita muloqot, asosiy informatsiya nolisoniy vositalar orqali ifodalanadi. Dunyoning yetakchi psixolog, tilshunos olimlari va inson ruhiyati bo'yicha ko'plab mutaxassislarning bir ovozdan ta'kidlashicha, muloqot davomida suhbatdoshimizga yetkazib bergan ma'noning faqat beshdan bir qismigina bevosita so'zlar orqali ifodalanadi, 80% axborot imo-ishoralar yordamida beriladi. Shu soha mutaxassislari, xususan, Albert Meyerabian fikriga ko'ra, yevropaliklar muloqot jarayonida informatsiyaning faqat 7 foizigina lisoniy vositalar orqali, qolgan foizi esa boshqa nolisoniy vositalar orqali ifodalanadi. Boshqa olimlar, xususan, prof. Berdvissi tadqiqot natijalari ham nutqiy muloqot jarayonida informatsiyaning 35 foizi lisoniy, 65 foizi nolisoniy vositalar orqali ifodalanishini ko'rsatgan. Zero, "odam"ning so'zidan faqat uning qanday ko'rinish niyatida ekanligini bilish mumkin, aslida uning qandayligi so'zlarni ifodalashdagi imo-ishoralardan, yuz bujmaytirishlaridan, binobarin, uning o'rganib qolgan harakatlaridan bilib olish mumkin (F.Shiller). Chunki inson nutq a'zolari orqali gapiradi, butun vujudi yordamida suhbatlashadi. Jumladan, oddiy bir noverbal vosita – "kulgida kulinayotgan obyektga munosabat bildirib, baho beribgina qolmay, shu bilan birga, u orqali kulayotgan kishining madaniyat darajasi, xarakter va didi ham namoyon bo'ladi". Ko'rinadiki, muloqot jarayonida fikr va munosabat ifodasining 90 foizdan oshiqrog'ini noverbal vositalar tashkil etar ekan. Demak, o'zbek tilida dunyodagi

barcha tillar kabi fikr faqat lingvistik yo‘l bilangina emas, balki lingvistik bo‘lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar – imo-ishoralar yordamida ham ifodalanadi. Ammo bir millat tomonidan ma’lum bir ma’noni ifodalash uchun qabul qilingan imo-ishora boshqa bir millatda esa bu mazkur ishora yo hech qanday kommunikativ vazifani bajarmaydi, yoki boshqa ma’noni ifodalashi mumkin. Demak, muloqot jarayonida imo-ishoralarda ham milliy xususiyat aks etadi. Biz o‘rganayotgan xalqona qasamlar ham muloqot jarayonida reallashadi. Xulosa qilishimiz mumkinki, ularda ham kinetik vositalarning o‘z o‘rni beqiyos. Yuqorida aytib o‘tilgan noverbal vositalar 90%ining ma’lum qismi xalqona qasamlarga taalluqlidir. Kinetik vositalarni bosh harakati va tana harakatiga ajratish mumkin. O‘zbek tilida “bosh chayqash” harakati hayron qolish, qoyil qolish, rohatlanish, afsuslanish kabi ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, “Yonida o‘tirgan a’lam uning so‘zini ma’qullab, boshini qimirlatdi (Abdulla Qahhor). Bu misolda “Boshini qimirlatdi” konstruksiyasi ma’qullash ma’nosida ishlatilayotgani nutqda aniqlanadi.

Yuz qismi harakati orqali yuzaga keladigan imo-ishoralar va ularni ifodalovchi bir qator fe’llar mavjud. Mazkur fe’llar semantik jihatdan ishora fe’llari deb yuritiladi. Masalan, ko‘z qisdi, labini burdi, burnini jiyirdi kabi. Xalqona qasamlarda bu harakatlar faqat javob qismida salbiy ma’noda qo‘llanishi mumkin.

Inson nutq a‘zolari orqali fikrini yetkazadi, butun vujudi yordamida suhbatlashadi. Demak, insonning to‘la suhbatga berilishi uning qo‘l va boshqa tana a‘zolari harakati orqali ham yuzaga chiqadi. Ayniqsa, qo‘l harakati eng ko‘p ishlatiladigan harakatlardan biridir. Bu harakat orqali axborot berishdan ko‘ra buyruq berish vazifasi ko‘proq ifodalanadi. Ushbu harakatlar xalqona qasamlarda ham ishlatiladi. Masalan, “Barmog‘ini labiga bosib, hech nima aytmayman, ont ichaman” – degan ishora qildi (Tohir Malik. Talvasa, 468-bet).

Demak, tilda qasam nutqiy janri ijobiy va salbiy fikrlarga asoslangan, o‘zida leksik-grammatik, struktur, kompozitsion tuzilishni aks ettiruvchi mustaqil nutqiy janrdir.

#### **Adabiyotlar.**

1. Abercromie D. “Paralanguage” in British journal of Disorders of Communication, – № 3, 1968, – P. 55.
2. Аллан Пиз. Язык телодвижений. – Москва: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. – С. 272.
3. Воронцов В.Л. Тафаккур гулшани. – Тошкент: Фафур Фулом, 1989. –Б. 453.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. 2 жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 217.
5. Махсудова М. Мулоқот психологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2006. – 117 б.;
6. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан. 2008. – Б. 83; Саидхонов М. Нoverбал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 84.
7. Юнусов Қ., Саттибаев И. Танамиз тилга кирганда. Истиклол нури, – Тошкент, 2016. – Б. 8.